

RAQAMLI INSON HUQUQLARI: TARTIB VA HIMOYA IZLAB

Normo'minov Rustam Hamza o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti, "Xalqaro huquq va inson huquqlari" yo'nalishi,
magistratura talabasi

Email: rustamnormuminov544@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15679815>

Kalit so'zlar. Axborot kodeksi, raqamli huquqlar, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, internet erkinligi, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt, blokcheyn, shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, huquqiy munosabatlar.

DIGITAL HUMAN RIGHTS: SEARCHING FOR ORDER AND PROTECTION

Keywords. Information code, digital rights, personal data protection, internet freedom, cybersecurity, artificial intelligence, blockchain, personal data collection, legal relations.

ЦИФРОВЫЕ ПРАВА ЧЕЛОВЕКА: ПОИСК ПОРЯДКА И ЗАЩИТЫ

Ключевые слова. Кодекс информации, цифровые права, защита персональных данных, свобода в интернете, кибербезопасность, искусственный интеллект, блокчейн, сбор персональных данных, юридические отношения.

Bugungi raqamli transformatsiya davrida inson huquqlarining yangi shakllari **raqamli huquqlar** muhim huquqiy muammolardan biriga aylanmoqda. Internet texnologiyalarining keng tarqalishi, ma'lumotlar almashinuvni tezligining ortishi, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli xizmatlarning hayotimizga chuqur kirib borishi inson faoliyatining barcha sohalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlar, ayniqsa, **axborot olish, uni tarqatish va undan foydalanish huquqlari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish**, hamda **kiberxavfsizlik** kabi sohalarda yangi yondashuv talab etmoqda.

Shu sababli, turli davlatlar, jumladan, **O'zbekiston, Rossiya va Qirg'iziston**, o'z milliy huquqiy tizimlarida **axborot kodekslarni** ishlab chiqishga kirishdilar. Bu kodekslar orqali davlatlar mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish, zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solish va eng asosiysi — fuqarolarning raqamli makondagi huquq va erkinliklarini kafolatlashni maqsad qilganlar. Masalan, O'zbekistonda ishlab chiqilayotgan "**Axborot kodeksi**" shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, jurnalistlar faoliyati, axborot erkinligi va media savodxonlikni rivojlantirish kabi dolzarb yo'nalishlarni qamrab oladi [1]. Rossiyada esa "**Raqamli kodeks**" loyihasi raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, axborot xavfsizligi va boshqa zamonaviy texnologiyalarni huquqiy jihatdan tartibga solish uchun mo'ljallangan [2]. Qirg'izistonda parlament tasdig'idan o'tgan kodeks esa investorlar va "**raqamli kochevniklar**" uchun huquqiy muhit yaratish, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan [3]. Ushbu kodekslar yaratilishining asosiy sababi raqamli makonda yuzaga kelayotgan yangi huquqiy muammolarni hal qilishdir. Zero, raqamli texnologiyalar faqat imkoniyat emas, balki xavf-xatarlarni ham o'z ichiga oladi. Shunday ekan, zamonaviy davlatlar uchun **raqamli huquqiy tartibot** — bu siyosiy ixtiyor emas, balki **strategik zaruratdir**. Raqamli inson huquqlari, asosan, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, internetda erkin harakat qilish, kiberxavfsizlik va boshqa bir qancha huquqlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda texnologiyalar juda tez rivojlanayotganligi sababli, internetda shaxsiy hayotga xavf tug'diradigan yangi muammolar

paydo bo'lmoqda. Shuning uchun shaxsiy huquqlarini himoya qilish juda muhim masala. Axborot kodeksi va raqamli inson huquqlarini tartibga solish orqali bu muammolarni hal qilish mumkin. Axborot kodeksi shaxsiy ma'lumotlarni qanday yig'ish va ishlatishni aniq belgilab beradi. Bu kodeks foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qilish va internetda shaxsiy hayotni saqlashga yordam beradi. Bu kodeks ijtimoiy tarmoqlar, masalan, Facebook, Instagram, Telegram, WhatsApp va boshqa internet platformalarida foydalanuvchilarining ma'lumotlarini qanday ishlatishni nazorat qiladi. Ushbu platformalar ko'pincha foydalanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlarini yig'ib, reklama va boshqa xizmatlar uchun ishlatadi. Axborot kodeksi bu platformalarda ma'lumotlarni qanday ishlatish kerakligini aniq belgilaydi, bu esa foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qiladi. Yangi texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt va blokcheyn, ham bu platformalarda ma'lumotlarni ishlash usulini o'zgartirishi mumkin. Axborot kodeksi bu texnologiyalarni hisobga olib, shaxsiy huquqlarni himoya qilish uchun yangi tartiblar yaratadi. Shu bilan birga, bu kodeks internetda xavfsiz va erkin muhit yaratadi.

Rossiya va AQShda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda katta muammolar bor. Masalan, Rossiyada "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi" qonun 2006-yilda qabul qilingan [4] lekin hozirgi texnologiyalarga, masalan, internetga kirish va yangi tarmoqlarni hisobga olganda bu qonun eskirib qoldi. Axborot kodeksi bunday qonunlarni yangilab, shaxsiy ma'lumotlarni qanday toplash va ishlatish kerakligini aniq belgilashga yordam beradi. Misol uchun, Yevropada GDPR (shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tartibi) joriy etilganidan so'ng, kompaniyalar endi foydalanuvchilarining ruxsatsiz ularning ma'lumotlarini yig'ish va ishlatish huquqiga ega emas. [5]. Agar axborot kodeksi tuzilmasa, kompaniyalar va davlatlar bir-biridan ma'lumotlarni himoya qilishda qiynaladi. Misol uchun, 2017-yilda AQShda bir kompaniya 143 million kishining shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlashdi [6]. Bu kabi voqealar kiberxavfsizlikni yaxshilash zaruratini ko'rsatadi. Axborot kodeksi esa, kompaniyalarga o'z ma'lumotlarini qanday himoya qilishni belgilaydi. Ko'plab mamlakatlar raqamli huquqlarni himoya qilishga oid qonunlar chiqarishgan, ammo ular eskirib qolgan. Masalan, AQShdagagi eski qonunlar yangi texnologiyalarni hisobga olmaydi. Axborot kodeksi esa bu qonunlarni yangilab, foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qilishni osonlashtiradi. O'zbekistonda axborot kodeksini yaratish va raqamli huquqlarni himoya qilishning bir necha asosiy sabablari bor: Birinchisi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishdir. Odamlar internetda o'z shaxsiy ma'lumotlarni (rasm, telefon raqami, pasport raqami va boshqalar) turli sayt va ilovalarga kiritishyapti. Bu esa ularni firibgarlar qo'liga tushirib qo'yish xavfini oshiryapti. Misol sifatida, Sh.F. ismli fuqaro "HELLO TASHKENT, SALAM TASHKENT" nomli Telegram kanaliga boshqa bir odamning shaxsiy suratlarini joylashtirgan. Jabrlanuvchi bunga e'tiroz bildirib, rasmlarni o'chirishni so'ragan. Sh.F. esa suratlarni o'chirish evaziga undan 1 million so'm pul talab qilgan. Pulni ikki qismda — har safar 500 ming so'mdan — plastik kartasiga o'tkazib olgan. Sud uni tovlamachilikda ayblab, ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlagan. Toshkentda bir guruh shaxslar uy ijaraga olib, ichida soxta call-markaz ochishgan. Ular fuqarolarga telefon qilib, o'zlarini davlat xodimi yoki bank xodimi deb tanishtirib, ularni aldashgan. Tergov jarayonida ular 15 mingdan ortiq odamning shaxsiy ma'lumotlari, ko'plab plastik kartalar, hatto giyohvandlik moddalarini ham saqlayotgani aniqlandi. Tergov organlari tomonidan 20 dan ortiq shaxs qo'lga olindi, jinoyat ishi qo'zg'atildi [7]. Muammo nimada? Bunday holatlar ko'paymoqda, ammo bizda bu boradagi profilaktik tartib mavjud emas. Bu kabi misollar

O‘zbekistonda Axborot kodeksi nima uchun zarurligini aniq ko‘rsatadi. Har bir fuqaroning shaxsiy ma’lumoti himoyalanishi kerak. Aks holda, jinoyatchilar undan foydalanib, odamlarni aldashi, tovlamachilik yoki moliyaviy zarar yetkazishi mumkin. Muammo nimada? Bunday holatlar ko‘paymoqda, ammo bizda bu boradagi profilaktik tartib mavjud emas.

Ikkinchisi, internet erkinligini ta’minalash hisoblanadi: Internetda fikrlar erkin ifodalangan bo‘lishi kerak. Hozirda ko‘plab blogerlar tarqatgan din va siyosatga oid axborotlarni haqqoniy emasligi uchun javobgar bo‘ldi. Bu esa ularning erkin fikr bildirish huquqini cheklashi mumkin. Konstitutsiyada har bir fuqaro internetdan erkin foydalanish huquqiga ega deb belgilangan. Biroq, bu huquq shaxsiy sir, davlat siri yoki boshqa maxfiy axborotlarni tarqatishni taqiqlash orqali cheklanishi mumkin. Agar kodeks bo‘lmasa, davlatlar internetda erkin fikrni cheklashlari mumkin. Axborot kodeksi esa, internetda erkinlikni himoya qilib, senzurani oldini olishga yordam beradi. Uchinchisi esa, yangi texnologiyalarni nazorat qilish hisoblanadi. Sun‘iy intellekt, blokcheyn kabi texnologiyalar tez rivojlanmoqda. Bu, firibgarliklar, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash kabi xavflarni keltirib chiqaradi. **Misol** uchun 2022-yilda “OneCoin” kriptovalyuta ponzi sxemasi orqali 4,4 milliard dollar o‘g‘irlangan [8]. Bu firibgarlikda kriptovalyutadan noqonuniy pul o‘tkazmalari amalga oshirilgan. Axborot kodeksi yangi texnologiyalarni nazorat qiladi, ularni noqonuniy ishlatishni oldini oladi va fuqarolarning xavfsizligini ta’minalaydi.

Xulosa qilib, Axborot kodeksi raqamli dunyoda fuqarolarning huquqlarini himoya qilish uchun zarurdir. U shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minalash, internetda erkin fikr almashish va yangi texnologiyalarni nazorat qilishni maqsad qiladi. Bu kodeks jinoyatlarning oldini olish, xavfsiz raqamli muhit yaratish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli inson huquqlari ushbu kodeks orqali tartib va himoya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gazeta.uz. (2024). "O‘zbekistonda axborot kodeksi haqida yangi takliflar". Gazeta.uz. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/20/axborot-kodeksi/>
2. Фролова, М. (2024). Единый документ: какие нормы будет описывать Цифровой кодекс РФ. *Известия*. URL: <https://iz.ru/1704035/mariia-frolova/edinyi-dokument-kakie-normy-budget-opisyvat-tcifrovoy-kodeks-rf>
3. Хван, Екатерина. "В Кыргызстане введут Цифровой кодекс. Что он регулирует." DW.com, 13 дек. 2024, <https://www.dw.com/ru/v-kyrgyzstane-vvedut-cifrovoj-kodeks-cto-on-reguliruet/a-71052164>.
4. «О персональных данных». Федеральный закон от 27.07.2006 № 152-ФЗ (последняя редакция). КонсультантПлюс, https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61801/.
5. European Union. *Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the Protection of Natural Persons with Regard to the Processing of Personal Data and on the Free Movement of Such Data (General Data Protection Regulation, GDPR)*. European Union, 2016, <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32016R0679>.
6. Federal Trade Commission. *Equifax Data Breach: What to Do*. Federal Trade Commission, 2017, <https://www.consumer.ftc.gov/blog/2017/09/equifax-data-breach-what-do>.

7. "Internetda shaxsiy ma'lumotlar himoyasi jiddiy muammoga aylanmoqda." Xabar.uz, 9-apr. 2025, <https://xabar.uz/uz/tahlil/internetda-shaxsiy-malumotlar-himoyasi-eng-jiddi>.
8. "OneCoin Ponzi Scheme: \$4.4 Billion Stolen in Cryptocurrency Scam." Reuters, 2022, <https://www.reuters.com/article/us-crypto-onecoin-scam-idUSKCN1VQ0Z2>.